

“Qamashi” suv omboriga tashrif

2021-yil 16-iyun kuni Suv xo’jaligi melioratsiyasi ta’lim yo’nalishi 2 bosqich talabalari amaliyot rahbarlari J.Sag’diyev, F.Tursunov va Sh.Xushshiyevlar bilan birgalikda Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanida joylashgan “Qamashi” suv omboriga tashrif buyurishdi. Amaliyot davomida talabalarga “Qamashi” suv ombori boshlig’ining o’rinbosari X.Alimov suv ombori haqida ma’lumotlarni aytib o’tdi, undan so’ng bosh gidrometri M.Xudoynazarov tomonidan talabalarga suv o’lchash ishlarini qanday amalga oshirilishi va bajarilishini ko’rsatib berildi. Talabalar o’zlarini qiziqtirgan savollarning barchasiga javob oldilar.



**“Irrigatsiya va melioratsiya ” kafedrasi o’qituvchisi Jasur Sag’diyev axboroti
TIQXMMI matbuot xizmati**